

ERTAKLAR XUSUSIDA

*Andijon davlat chet tillari instituti
Roman-german va slavyan tillarini
o'qitish
fakulteti,
Kompyuter lingvistikasi yo'nalishi
1-bosqich talabasi
Haydarova Mushtariy Komiljon qizi
Ilmiy maslahatchi: Kabulova Umida*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ertaklarda qoliplashgan birikmalar haqida gap boradi. O'zbek xalq og'zaki ijodi bebaho ma'naviy merosimizdir. Uning eng qadimiy va eng sevimli janrlaridan biri – ertaklardir. Ertaklarda xalqning orzu-umidlari, ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvurlari, hayotiy tajribasi mujassam. Shu bilan birga, ertak tilida qoliplashgan birikmalar – ya'ni, ma'lum shaklda takrorlanadigan, an'anaviy iboralar juda ko'p uchraydi¹. Ular ertakning o'ziga xos uslubini, milliy ruhini va badiiy go'zalligini ta'minlashi haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: *qoliplashgan birikma, ertak, janr, ibora, an'anaviy ibora, milliy rux, uslub, xalq og'zaki ijodi, ma'naviy meros.*

Annotation: This article talks about fixed phrases in fairy tales. Uzbek folk oral art is our invaluable spiritual heritage. Fairy tales are one of its most ancient and favorite genres. Fairy tales embody the people's aspirations, ideas about good and evil, and life experience. At the same time, fixed phrases, that is, traditional expressions that are repeated in a certain form, are very common in the language of fairy tales. It talks about how they ensure the unique style, national spirit and artistic beauty of the fairy tale.

¹ Rasulov B. Ertak tilida barqaror birikmalar. – Filologiya masalalari jurnali, 2019.

Keywords: *fixed phrase, fairy tale, genre, expression, traditional expression, national spirit, style, folk oral art, spiritual heritage.*

Аннотация: В данной статье рассказывается об устойчивых словосочетаниях в сказках. Узбекское устное народное творчество – наше бесценное духовное наследие. Один из его древнейших и любимейших жанров – сказки. В сказках воплощены мечты и чаяния народа, представления о добре и зле, жизненный опыт. При этом в языке сказок очень часто встречаются устойчивые словосочетания, то есть повторяющиеся в определенной форме, традиционные выражения. В статье говорится о том, что они обеспечивают своеобразный стиль, национальный дух и художественную красоту сказки.

Ключевые слова: *устойчивое словосочетание, сказка, жанр, выражение, традиционное выражение, национальный дух, стиль, устное народное творчество, духовное наследие.*

Har bir xalqning o‘y-xayoli, yashash tarzi, o‘ziga xos milliy madaniyati, mentaliteti, urf-odat va an’anaviy tarixiy ildizlarini ifodalay olish imkoniga ega folklor janrlarga murojaat qilishga undamoqda. Qoliplashgan birikmalar – bu xalq og‘zaki ijodida ma’nosi barqarorlashgan, shakli o‘zgaras bo‘lgan iboralar, so‘z birikmalari yoki jumladir. Ular ko‘pincha ertaklarning boshlanishi, rivoji va yakunida ishlatiladi. O‘tgan asrda G‘arb tilshunoslarning e’tiborini tortgan lingvofolkloristika XXI asrning ilk yillaridanoq o‘zbek tilshunoslarining ham diqqatini tortib kelmoqda². Folklor janri ichida ertak janri til imkoniyatlariga boyligi, lingvomadaniy jihatlarni o‘ziga jamlaganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Shu o‘rinda o‘zbek ertakchiligi tarixi haqida to‘xtalib o‘tsak, maqsadli bo‘ladi. O‘zbek ertakchiligi ham uzoq tarixga ega. “Dede qo‘rqut” kitobidan buyon to XX asrning boshigacha vujudga kelgan barcha adabiy va badiiy obidalarida, turli ko‘rinishda o‘zbek xalqining qadimiy ertakchiligi, dostonchiligi, qissalari, afsonalari o‘z izlarini qoldirgan. Ertak – bu xalq og‘zaki

² O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.

ijodining bir turi bo'lib, unda mo'jizaviy voqealar, qahramonlar, hayvonlar, ajdarho, pari, dev kabi fantastic obrazlar ishtirok etadi. Ertak epik turga mansub qadimiy janr, xalq orasida g'oyat keng tarqalganligi, asrlar davomida shakllangan milliy-madaniy qadriyatlar, xalqning turmush-tarzi, an'analari va urf-odatlarini o'ziga xos tarzda epik talqin qiladigan, asosan, professional ijrochilar – ertakchilar tomonidan nasriy usulda, og'zaki tarzda hikoya etish orqali ommalashishi, yaxlit poetik tizim sifatida shakllanganligi, o'ziga xos badiiy struktura va motivlar tarkibiga egaligi, hayotiy voqelikni xayoliy uydurma, fantastik talqin orqali ifoda etishi bilan xarakterlanadi.

Ertaklarning umumiy xususiyati: Uydirmaga asoslanadi: voqealar ko'pincha fantaziya va mo'jizalarga boy. Axloqiy g'oya mujassam: yaxshilikning yomonlik ustidan g'alabasi asosiy g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Qiziqarli syujet: voqealar tez rivijlanadi, sarguzashtlarga to'la bo'ladi. Og'zaki shaklda avloddan-avlodga o'tgan: ertaklar dastlab aytib berilgan, keyinroq yozma shaklga o'tkazilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Turkiy xalqlar folklorida ertak dastabki adabiy janrlaridan biri ekanligi ma'lumm. Ertak atamasi O'TILda quyidagicha izoh beriladi: "Ertak – xalq og'zaki ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan, sehrli-sarguzasht va maishiy mazmundagi epik badiiy asardir"³.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari orasida matal, Buxoro atrofida tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak deb ataladi⁴. Ertak hayot haqiqatining hayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyibg'aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g'ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo'lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi, syujet chizig'idagi dinamik harakatning

³ O'TIL.V.52

⁴ Махмуд Кошгарий. Девону луготит-турк. 1-том. – Ташкент: Фан, 1960. –Б. 98.

konflikt yechimini ta'minlaydi. Uydirmalarning turli xil namunalari ta'limiy estetik funksiyani bajaradi, janr komponenti sifatida o'ziga xos badiiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Uydirmalar voqea va hodisalarni hayotda bo'lishi mumkin bo'lmagan yoki mavjud bo'lgan hodisalar tarzida tasvirlaydi. Xayoliy va hayotiy uydirmalarning ishtiroki, syujet chizig'ida tutgan o'rni va vazifasiga ko'ra, ertaklarni 2 guruhga — xayoliy uydirmalar asos bo'lgan ertaklar, hayotiy uydirmalar asos bo'lgan ertaklarga bo'lish mumkin. Xayoliy uydirmalar asosidagi ertaklar syujeti mo'jizali, sehrli; hayotiy uydirmalarga asoslangan ertaklar syujeti esa hayotiy tarzda bo'lib, unda real voqea-hodisalar tasvirlanadi. Ertakda, asosan, uch maqsad hikoya qilinadi. Birinchisida ideal qahramonning jasorati, yovuz kuchlarga qarshi chiqib, xalq manfaatini himoya qilishi, ikkinchisida, asosan, bosh qahramonning o'zga yurt malikalariga yoki parizodlariga oshiq bo'lib uylanishi, kasalga dori topishi, ajdar va devlar olib qochgan kishilarni ozod qilishi, uchinchisida esa adolatsizlikka, zulmga qarshi chiqishi kabi maqsadlar bayon qilinadi. Birinchi maqsad pahlavonning faol harakati va g'ayritabiiy kuchqudrati bilan amalga oshsa, ikkinchi maqsad passiv qahramonga yordam beruvchi tilsim vositalari yordamida, uchinchisi maqsad esa bosh qahramonning aqlidroki, tadbirkorligi bilan amalga oshadi.

Ertak janri obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o'rni va vazifasi, tili va uslubiga ko'ra, shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar, hajviy ertaklarga bo'linadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning bir turi majoziy ertaklardir. Majoziy ertaklarning ("Susambil", "Bo'ri bilan tulki", "Tulkining taqsimoti", "Ikki boyqush" va boshqalar) syujeti asosida ko'chma ma'no, allegorik obrazlar yotadi. Masalan, laqmalik va qonxo'rlik bo'ri orqali, ayyorlik va tilyog'lamachilik tulki orqali ifodalangan.

Sehrli ertaklarda voqealar sehr-jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan bo'ladi. Bular pahlavonlik va qahramonlik madh etiladi ("Yalmog'iz", "Semurg", "Devbachcha", "Kenja botir" va boshqalar). "Quloqboy", "Handalak polvon", "Uch yolg'onda qirq yolg'on" va boshqalar ertaklar komik, ba'zilar hatto hajviy xarakterga

ega. Masalan, “Uch yolg‘onda qirq yolg‘on”da bosh qahramon xalq orasida shuhrat topgan kal bo‘lib, bu komik qahramonning “yolg‘on to‘qishi”dan zulm va jaholat, adolatsizlik kabi mavjud tuzumga xos illatlar qoralanadi, kishilardagi donishmandlik, tadbirkorlik kabi fazilatlar ulug‘lanadi.

Maishiy eratlarda ko‘proq zulm va adolatsizlik qoralanadi (“Uch og‘a-ini botirlar”, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Tohir va Zuhra”, “Farhod va Shirin”, “Zolim podsho” va boshqalar).⁵ Masalan, “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi odatdagidek, ota nasihati bilan boshlanadi. Bunda ota kambag‘al, lekin hayot tajribalariga boy bo‘lgan shaxs, boshqa variantlarida esa shoh bo‘lib, o‘g‘illari shahzodalardir. Botirlar obrazida axloq va odobning yuksak namunasi, odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar ko‘rinsa, shahzodalar qiyofasida molmulk to‘plash yo‘lida har qanday yomon niyatlardan qaytmaydigan yolg‘onchi, johil kishilar obrazi gavdalangan.

Ertaklar, asosan, didaktik vazifani bajaradi. ertaklarning “Ming bir kecha”, “Panchatantra” va boshqalar yaxshi namunalari, G.X.Andersen, V.Xauf, A.S.Pushkin kabilarning mumtoz adabiy ertaklari jahon madaniyati xazinasiga kirgan. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan chambarchas bog‘lanishi, insonlarga axloqiy va ma‘naviy yo‘ldosh bolib kelishidadir. Ertaklar insonning ma‘naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sugorilgan bolib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o‘ziga dushman bolgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g‘olib chiqadi. Xalq ertaklarida ijtimoiy muhim masalalar odilona hal etiladi. Ertaklar sodda va tushunarli bo‘lgani uchun har qanday kitobxonga tez yetib boradi. O‘tmishda yaratilgan ertaklarda xalqchilik kurashi o‘zining haqqoniy badiiy ifodasini topgandir. Xalqning kelajakka bo‘lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g‘alabasi, yorug‘likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g‘oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlangan. Ertaklar azaldan xalqni, ayniqsa, yosh avlodni insonparvarlik, vatanga muhabbat, rostgo‘ylik va halollik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik va kamtarlik

⁵ Rasulov B. Ertak tilida barqaror birikmalar. – Filologiya masalalari jurnali, 2019.

ruhida tarbiyalab kelgan. Ertaklar turli mavzularda bo'lishi mumkin. Ular shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar, hajviy ertaklarga bo'linadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar barcha qiziqadigan fantastik hikoyalardir. Ulardagi asosiy mazmun majoziy, ya'ni ko'chma ma'noga ega. Masalan, *ayyorlik va munofiqlik tulki, qonxo'rlik, laqmalik* bo'ri orqali ifoda etiladi. “Bo'ri bilan tulki”, “Echkining o'ch olishi”, “Ochko'z bo'ri”, “Ayiqqolvon” kabi ertaklar ana shunday asarlardir.

Sehrli ertaklar ham Siz sevib va qiziqib o'qiydigan fantastik hikoyalardir. Ularda voqealar sehr-jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan, asar qahramonlari har narsa qo'lidan keladigan mo'jizakor kimsalar “Ur to'qmoq”, “Ochil dasturxon”, “Semurg”, “Susambil” ertaklaridan iborat. Johillik, ikkiyuzlamachilikni la'natlash, aql-farosatlilik, tadbirkorlik, jasurlik, rahmdillik, ahillik kabi chin insoniy xislatlarni targ'ib qilishdir.

Xalqimiz yaratgan xayoliy hikoyalar orasida shunday turkum ertaklar borki, ularni biz hayotiy-maishiy ertaklar deb ataymiz. Bunday ertaklardagi voqealarning aksariyati hayotga yaqin, hayotdan olingan. “Zumrad va Qimmat”, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Ziyod botir”, “Tohir va Zuhra”, “Ozodachehra”, “Farhod va Shirin”, “Malikayi Husnobod”, “Uch og'a-ini botirlar” ana shunday ertaklar sirasidandir.⁶ Biz yuqorida tilga olgan hayotiy-maishiy ertaklar kishida jiddiy fikr-mulohazalar uyg'otadigan, muayyan tarbiyaviy yo'nalishga ega bo'lgan asarlardir. Siz ular bilan tanishgach, botirlik, yurtga fidoyilik, odamgarchilik, vafodorlik, himmat va saxovat haqida aniq tasavvurga ega bo'lasiz, o'zingizda ham ertaklar qahramonlaridagi yaxshi fazilatlamini bo'lishini xohlab qolasiz, shunga intilasiz.

Ertaklarni ham tinglaymiz, ham o'qiymiz dedik. Tinglaydigan ertaklarimiz professional ertak aytuvchilar, ya'ni ertakchilar tomonidan qiziqarli tarzda hikoya qilinadi. Ertakchilar shunchaki hikoya qilmaydilar. Har bir ertakchi u yoki bu ertakni

⁶ Исраилова С. Замонавий тилшуносликда халк ертакларини урганишнинг лингвокултурологик хусусиятлари. // Суз санъати. – Тошкент, 2020. № 5. – Б. 232.

qayta yaratadi desak, xato bo'lmaydi. Chunki ularning har biri o'zining hikoya qilish uslubi, didi, dunyoqarashiga ko'ra ajralib turadi. Bundan tashqari, ertakchi tinglovchilarning saviyasi va talabiga ko'ra ertakni o'zgartirishi mumkin. O'zbek xalq og'zaki ijodi tarixida ertaklarning badiiy asar darajasiga ko'tarilishi va bugungi kungacha saqlanib qolishida Hamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi o'g'li, Haydar Baychi o'g'li, Nurali Nurmat o'g'li, Husanboy Rasul o'g'li kabi ertakchi, matalchilarimiz katta xizmat qilganlar. Ular og'zidan yozib olingan O'zbek xalq ertaklarining bebaho namunalari bizga hanuzgacha ma'naviy zavq berib kelyapti. O'zbek adabiyotida xalq ertaklari asosida yaratilgan she'riy, nasriy asarlar teatr va kinoda ham o'z aksini topgan.

Qiziqarli ertaklar sujeti asosida sahna asarlari, kinofilmlar -multfilmlarni bolalar sevib tomosha qilmoqda.

Bolalar, ertaklarning yaratilishiga ko'ra yana bir turi - yozma ertaklar ham mavjudki, ujahon adabiyoti, xususan, o'zbek yozma adabiyotining katta qismini tashkil etadi. Keyingi ikki - uch yuz yillikda fransuz ertakchisi Sharl Perro (1628-1703), nemis ertaknavislari Emst Teodor Amadey Gofman (1776-1822), aka-uka Yakob Grimm (1785-1863) va Velgelm-Karl Grimm (1786-1859)lar, Vilgelm Gauf (1802-1877), daniyalik Hans Kristian Andersen (1805-1875), angliyalik Oskar Uayld (1854-1900), rus ertakchilari A.S.Pushkin (1799-1837) ijodining roppa-rosa o'n yilini faqat bolalar uchun hikmatli hikoyalar va ertaklar yaratishga bag'ishlagan L.N.Tolstoy (1828-1910), K.D.Ushinskiy (1824-1870) yozma ertakchilikni rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar. O'zbek yozma ertakchiligi ham katta tarixga ega. Jadid bobolarimiz Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Siddiqiy-Ajziy o'zlari tuzgan maktab darsliklari uchun ko'plab ibratli ertaklar yaratdilar. O'tgan asr o'rtalarida Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg", Sulton Jo'raning "Zangori gilam", Shukur Sa'dullaning "Ayyor chumchuq", "No'xat polvon", "Laqma it" she'riy ertaklari, "Yoriltosh", "Afsona yaratgan qiz" ertak-pyesalari, "Kachal polvon" ertak-qissasi mashhur bo'ldi. Adiblarimizning ertakchilik sohasidagi an'alarini keyinchalik X.To'xtaboyev,

A.Obidjon, T.Adashboyev, O'.Imonberdiyev kabi ertaknavis mualliflarimiz davom ettirdilar.

Xulosa. Ertaklarda qoliplashgan birikmalar o'zbek xalq og'zaki ijodining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular orqali xalqning til boyligi, estetik didi va badiiy tafakkuri namoyon bo'ladi. Shu sababli, bugungi kunda hamm ertaklarni o'rganish, undagi qoliplashgan iboralarni tahlil qilish – tilshunoslik va folklorshunoslik uchun muhim ilmiy yo'nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek xalq ertaklari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
2. Karimov M. O'zbek folklori asoslari. – Toshkent, 2015.
3. Rasulov B. Ertak tilida barqaror birikmalar. – Filologiya masalalari jurnali, 2019.
4. Абдурахимова Д.А. Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ахлокий руҳда тарбиялашда халқ ертакларидан фойдаланиш. Пед. фан. номз...дисс. –Тошкент, 1998. – Б. 11.
5. Мадаев О. Узбек халқ огзаки ижоди. Укув кулланма. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2013. – Б. 108.
6. Махмуд Кошгарий. Девону луготит-турк. 1-том. – Ташкент: Фан, 1960. –Б. 98.
7. Рахматуллаев Ш. Узбек тилининг этимологик лугати. 1 жилд. – Урганч, 2007. – Б. 52.